IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

„IKKI ESHIK ORASI „ ROMANIDA USLUBIY VOSITALARNING RUHIY HOLAT IFODALASHDAGI O‘RNI

Sharipova Maxliyoxon G’ayratovna
FarDU akademik litsey o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23970398

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning asarlaridagi ruhiy holat ifodalaydigan verbal vositalar haqida fikr keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Verbal vositalar, psixolingvistika,funktsionallashish , paralingvistika, lisopniy tushunchalar

2.1. Uslubiy vositalarning ruhiy holat ifodalashdagi o‘rni

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallif ixtiyoriga ko‘ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda, boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek, qat’iy mantiq, soddalilik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta’sirchanlik birinchi planga ko‘tariladi. Ohangdor, jozibador so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikka mos musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab xususiyatlarni o‘zida mujassam qilgan[1]. Badiiy matnning eng asosiy vazifalaridan biri ta’sirchanlik sanalar ekan, bu ta’sirchanlikka badiiy matn qahramonlarining ruhiy holatlari ifoda qilinishi bilan erishiladi. Qahramonning iztirob chekib, yig‘lashi o‘quvchini ham to‘lqinlantiradi, xursand va xushchaqchaq so‘zlashi, hazillardan foydalanishi o‘quvchining ham kayfiyatini ko‘taradi. Demak, matnda qo‘llangan lisoniy vositalar bilan qahramonning ruhhiy-hissiy holatini aks ettirish orqali ta’sirchanlik ta’minlanadi. Zero, “tilni inson omili bilan o‘rganish muammosiga jiddiy e’tibor qaratilayotgan bugungi kunda voqelikning inson psixologik tasavvuri bilan bog‘liq holda tilda aks etishi masalasining tahlili ustuvor vazifalardan biridir”[2].

Badiiy matnda personajlarning ruhiy-hissiy holati turli uslubiy vositalar yordamida namoyon bo‘ladi.

Borliqdagi voqea-hodisalar va u haqidagi xabarlar turli xil vositalar yordamida inson sezgi organlari orqali qabul qilinadi. Qabul qilingan axborotlar rang-barangligi, xilma-xilligi, ijobiy-salbiy jihatlari bilan inson his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadi. Kayfiyatni ko‘taradi, ba’zida tushiradi, kishini darg‘azab qiladi. Bu esa inson tasavvuri va tafakkurida shakllangan emotsiya va

[1] Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008. – B.36.
[2] Лутфуллаева Д. Ассоцматив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент, 2017. – Б.4.

his-tuyg‘ularning turli vositalar bilan qayta namoyon bo‘lishiga olib keladi. Qayg‘uli xabar odamning yuragini ezadi, xursandchilik esa kishilar ruhiyatini ko‘taradi[3].

Badiiy asar tilida uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiluvchi tilning maxsus ifoda vositalari borki, ular badiiy uslubning boshqa funksional uslublari orasidagi mavqeyini ifodalovchi muhim belgilardan biri sanaladi. Chunki til vositalarini majoziy, ya’ni ko‘chma ma’nolarda hamda obrazli tasvirda qo‘llash imkoni ma’lum darajada tilning boshqa funksional uslublarida ham mavjud, ammo ularda badiiy uslubdagi kabi erkin va keng doirada o‘rganish imkoniyati yo‘q[4].

Tilshunos olim N.Mahmudov shunday yozadi: “O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratadi, bu o‘xshatishlar kutilmagani, ohorliligi bilan o‘quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat, predmatlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavlalantiradi[5].

Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi[6].

– Shomurodga...

– Nima?! – U chayon chaqqandek sakrab o‘rnidan turdi. Etagining shamoli tegib lampa o‘chib qoldi (46-bet).

Chayon chaqqan (odam)day ifodasi “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi: “Sapchimoq, sakrab ketmoq, keskin harakat qilmoq. Birdaniga, tezlik bilan biron harakat qilmoq”[7].

“O‘xshatishlardan eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Bu muhim va keng qo‘llanuvchi vosita tilimizda xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarning natijasi sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, badiiy asarda so‘z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga keladi”[8].

Inson o‘z faoliyatini verbal va noverbal ko‘rinishlar asosida namoyon qiladi. Bunda uning nutqiga singib, qorishib ketuvchi va uning nutqiy axloqini namoyish etuvchi ichki holati ham

[3] Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Фарғона, 2022. – Б.93.

[4] Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2001. – Б.7.

[5] Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б.5-6.

[6] Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б.6.

[7] Маҳмудов Н. Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б.244.

[8] Йўлдошев М.Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 99.

sezilib turadi. Inson verbal vositalar yordamida o‘z fikrini ifoda etar yoki o‘zgalar fikrini qabul qilar ekan, ana shu nutqiy jarayonda tinglovchining ichki his-tuyg‘ularini sezadi. Bu his-tuyg‘ular uning nutqida oshkora, ba’zida yashirin holda amalga oshiriladi. Bu esa uning biror voqea, hodisa, fikrga nisbatan xususiy munosabatini belgilaydi. Bunday xususiy munosabatlardan biri ironik mazmun – munosabat ifodalashdir. Voqea, hodisa, yoki u haqidagi fikrga bo‘lgan xususiy munosabat ba’zan ochiq aytilmay, yashirin tarzda ifoda etiladi. Uslubshunoslikda nutq jarayonida suhbatdosh harakati yoki holatiga nisbatan bildiriladigan ichki yashirin salbiy munosabat ifodalash usuli ironiya deb ataladi[9]. Demak, ironiya badiiy matnda uslubiy vositalardan biri sanaladi va so‘zlovchining tinglovchiga salbiy munosabatini ifoda qilish ko‘rinishi sifatida xizmat qiladi. So‘zlovchining noroziligi, g‘azabi to‘g‘ridan to‘g‘ri bildirilmay, tagma’no yordamida ifoda qilinishida ironiya namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида.
2. Андижон, 1980. – 42 б.
3. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва мимикалар. Илмий-оммабоп рисола. – Тошкент: Фан, 2008. – 82 б.
4. Саидхонов М. Ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари. – Тошкент, 2022. – 228 б.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. – 92 б.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 318 б.
7. Солижонов Й. Бадиий нутқ поэтикаси. – Тошкент, 2023. –191 б.
8. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.
9. Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 176 б.

[9] Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2001. – Б.7.